

USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING UZBEK LANGUAGE

Kholmirezayeva Sayyora Shukurovna

Associate Professor of "Uzbek language and Literature"

TSU Candidate of Philological Sciences

ABSTRACT

This article provides information on pedagogical and innovative technologies used in the educational process. In fact, the role of innovative technologies in improving the quality of education is based on several specific instances. At the same time, such complex requirements are set as reading and understanding non-fiction literature, writing a text in the field of specialization and drafting a document, updating the text in terms of form and content, translating the text into a different style of speech. This, in turn, will depend on how students correctly and widely use the possibilities of the Uzbek language, including the lexical and methodological possibilities. All this will be ensured by the liveliness, breadth and interest of the proposed knowledge of the Uzbek language, the correspondence of the chosen profession to its specialization, modernity of teaching methods and techniques, and the effective use of audiovisual means. The article also provides information on the perception map, which is actively used in interactive learning.

Keywords: innovation, pedagogical technology, interactive, cluster, perception map, classification table, international experience, critical thinking, academic association.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada dars jarayonida qo'llaniladigan pedagogik hamda innovatsion texnologiyalar haqida ma'lumot beriladi. Darsning sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarning roli misollar orqali asoslanadi. Bunda ilmiy-badiiy adabiyotlarni o'qib tushunish, ixtisoslik sohasida matn yaratish va hujjat tuzish, matnni shakl va mazmun jihatdan yangilash, boshqa nutq uslubiga ko'chira olish kabi murakkab talablar qo'yiladi. Bu o'z navbatida talabalarning o'zbek tili imkoniyatlaridan qanchalik to'g'ri va keng foydalana bilishlariga, xususan, leksik va uslubiy imkoniyatlardan o'rinli foydalanishni qanchalik puxta o'zlashtirganliklariga bog'liq bo'ladi. Bularning barchasi ta'limning yuqori bosqichida o'zbek tilidan tavsiya etilayotgan bilimlarning hayotiyliigi, kengligi va qiziqarliligi, tanlagan kasbi, mutaxassisligiga muvofiqligi, o'qitish metodlari va usullarining zamonaviyligi, audiovizual vositalarning samarali qo'llanilishi bilan ta'minlanadi. Interfaol ta'limda faol qo'llaniladigan idrok xaritasi haqida tushuncha berilgan.

Tayanch so'zlar: innovatsiya, pedagogik texnologiya, interfaol, klaster, idrok xaritasi, toifalash jadvali, horijiy tajriba, fikrlash, assotsiatsiya.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о педагогических и инновационных технологиях, применяемых в учебном процессе. Роль инновационных технологий в повышении качества обучения обосновывается на конкретных примерах. При этом ставятся такие сложные требования, как чтение и понимание научно-художественной литературы, написание текста в сфере специализации и составление документа, обновление текста с точки зрения формы и содержания, перевод текста в другой стиль речи. Это, в свою очередь, будет зависеть от того, насколько студенты правильно и широко используют возможности узбекского языка, в том числе лексико-методические возможности. Все это будет обеспечиваться живостью, широтой и интересностью предлагаемых знаний по узбекскому языку, соответствием выбранной профессии своей специализации, современностью методов и приемов обучения, эффективным использованием аудиовизуальных средств. В статье также представлена информация о карте восприятия, которая активно применяется в интерактивном обучении.

Ключевые слова: инновация, педагогическая технология, интерактивный, кластер, карта восприятия, таблица классификации, зарубежный опыт, мышление, ассоциация.

INTRODUCTION

iy yoshlar innovatsion ta'lim sharoitida boy, keng qamrovli axborot texnologiyalari muhitida tahsil olmoqdalar. Bunday ta'lim tashabbuslar va yangiliklar negizida tug'ilib, o'quv-tarbiya jarayonining mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli yo'nalishni boshlab beradi hamda umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda oliy ta'lim muasasalarida talabalarni innovatsion texnologiyalar va ilg'or xorijiy tajribalar asosida o'qitish oldimizga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bunda ilmiy-badiiy adabiyotlarni o'qib tushunish, ixtisoslik sohasida matn yaratish va hujjat tuzish, matnni shakl va mazmun jihatdan yangilash, boshqa nutq uslubiga ko'chira olish kabi murakkab talablar qo'yiladi. Bu o'z navbatida talabalarning o'zbek tili imkoniyatlaridan qanchalik to'g'ri va keng foydalana bilishlariga, xususan, leksik va uslubiy imkoniyatlardan o'rinli foydalanishni qanchalik puxta o'zlashtirganliklariga bog'liq bo'ladi. Bularning barchasi ta'limning yuqori bosqichida o'zbek tilidan tavsiya etilayotgan bilimlarning hayotiyligi, kengligi va qiziqarliligi, tanlagan kasbi, mutaxassisligiga muvofiqligi, o'qitish metodlari va usullarining zamonaviyligi, audiovizual vositalarning samarali qo'llanilishi bilan ta'minlanadi.

Biz ham bilimlarni tayyor holda berib bo'lmasligi, talaba o'z bilimlarini tizimli ketma-ketlik asosida takomillashtirishi uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratib berish lozimligi, o'qituvchi talabani uni o'rab turgan borliqning muhim muammolarini izlash, tadqiq qilish va yechimini topishga jalb qila olishi, bu borada interfaol usullarni qo'llash maqsadga muvofiq, degan fikrdamiz. Bizningcha, interfaol o'qitish talaba shaxsiga, an'anaviy o'qitish esa – o'quv fani mazmuniga yo'naltirilgandir. Biroq o'qitishning bu usuli an'anaviy ta'lim muvaffaqiyatlarini inkor etmaydi. Qolaversa, har qanday interfaol o'qitish an'anaviy ta'lim negizida dunyo yuzini ko'radi.

Interfaol degani bu – o‘qituvchi va talabaning o‘zaro hamkorligi asosida do‘stona muhit yaratish, dars samaradorligini oshirish, talabalarda mustaqil fikrlash, fikr – mulohaza yuritish, munosabat bildirish ko‘nikmasini shakllantirish demakdir. Bu usulda talaba o‘zi faol ishtirok etgan holda, yakka, juftlikda, guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so‘zga chiqadi, dadil hamda asoslar orqali qo‘yilgan masalani yoritib borishga harakat qiladi. Bu esa talabalarning xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi mavzu (axborot)ni o‘zlashtirishda tanqidiy, tahliliy yondosha oladi. O‘qituvchi faqat fasilitator (yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, tashkil qiluvchi, kuzatuvchi) vazifasini bajaradi.

Grafik organayzerlardan ta‘lim jarayonida turli maqsadlarda foydalaniladi. Ma‘lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo‘lib chiqish, o‘rganilayotgan tushunchalar (voqea va hodisalar, mavzular) o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro bog‘liqlikni

o‘rnatishning usul va vositalariga “Klaster”, “Toifalash jadvali”, “Insert”, “BBB jadvali” kabi grafik organayzerlar kiradi.

“T-jadvali”, “Venn diagrammasi” ma‘lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslash maqsadida qo‘llaniladigan usul va vositalardir.

Tushunchalarga yondashuvlar	Tavsiflar, toifalar, xususiyatlar, ajralib turadigan belgilar		
Vazifaviy uslub turlari	Til xususiyatlari	Amal qilinish holati	Qo‘llanish doirasi
So‘zlashuv uslubi	Shevalarning ishlatilishi, o‘z lug‘aviy qatlamiga ega ekanligi	Erkin muomalada, badiiy asarlarning qahramonlari nutqida	Insonlarning kundalik faoliyatidagi og‘zaki nutq shakli
Rasmiy ish qog‘ozlari uslubi	Adabiy til me‘yoriga rioya qilinishi, leksik va grammatik o‘ziga xosligi	Ma‘muriy va yuridik ishlarda	O‘quv yurtlariga va boshqa muassasalarga ish yuzasidan murojaat qiluvchi shaxslar tomonidan
Ilmiy uslub	Sof ilmiy akademizm, atamalarning qo‘llanilishi	Fan, texnika va ishlab chiqarish sohasida	Olimlar, tadqiqotchilar, kashfiyotchilar, o‘qituvchilar tomonidan
Publitistik uslub	Gazeta tili, ijtimoiy-siyosiy atamalarning qo‘llanilishi, obrazlilik	Matbuotda, ommaviy axborot vositalarida	Jurnalistlar, shoirlar, ijodkorlar, qalamkashlar tomonidan
Badiiy uslub	Umumxalq tilning barcha lug‘aviy birliklarini qo‘llanilishi	Badiiy asarlar, badiiy matnlar, asar qahramonlarining nutqida	Yozuvchilar, shoirlar tomonidan yaratilgan badiiy asarlarda

“Nima uchun?”, “Baliq skeleti”, “Piramida”, “Qanday?” tarkibiy-mantiqiy sxema - muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari.

Konseptual jadval “Uslub turlari” mavzusi bo'yicha

Nutq uslublari	Asosiy belgilari
So'zlashuv uslubi	Erkinlik, norasmiylik; oldindan tayyorlanmagan nutq
Ilmiy uslub	Mantiqiylik, aniqlik, xolislik
Rasmiy uslub	Aniqlik, qoliplashganlik, rasmiylik, qat'iylik
Ommabop uslub	Baho berish, undash, chaqiriq shaklida bo'ladi
Badiiy uslub	Obrazlilik, ifodalilik, badiiylik

Nutq uslublari	Qo'llanish sohasi
So'zlashuv uslubi	Norasmiy muomala vositasi, do'stona xatlar, maishiy sohadagi aloqalar uslubi
Ilmiy uslub	Fan, texnika, ta'lim sohasi, Ilmiy ishlar, ilmiy axborot berishda ma'ruza, o'quv qo'llanmalari, lug'at va ilmiy asarlar tili uslubi
Rasmiy uslub	Ma'muruy-huquqiy faoliyat sohasi, turli hujjatlar tili (ariza, tavsiyanoma, nota, da'vo xati kabi)
Ommabop uslub	ijtimoiy-siyosiy doiradagi munosabatlar va adabiyotlar (radio, televideniye, matbuot), ommaviy so'zga chiqishlarda qo'llaniladigan uslub
Badiiy uslub	Badiiy asar tili

Interfaol ta'limda faol va samarador vositalardab biri idrok xaritasidir.

Idrok xaritasi – bu har qanday jarayonni yoki hodisani, fikr yoki g'oyani majmualashtirilgan, tizimlashtirilgan, vizual (grafik) shaklda taqdim etish usulidir.

Idrok-xaritasi bir varog'da, muammoni yechish uchun zarur bo'lgan bor ma'lumotlarni yig'ishga va unga yaxlit holda nazar tashlashga imkon beradi. Idrok-xaritalari u yoki bu yechimning salbiy va ijobiy tomonlarini ko'zdan qochirmaslikka ko'maklashadi. Idrok-xaritalari assotsiativ tafakkur qilish jarayonini faollashtiradi va bu an'anaviy tahlil vaqtida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni keltirib chiqargan muhim omillarni ko'rishga imkon beradi. Bunga qo'shimcha idrok-xaritalarida obrazlar va ranglarni qo'llash intuitsiyani faollashtiradi, bu esa qabul qilinayotgan qarorlarning to'g'riligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Idrok-xaritasining matnli reja oldidagi ustunligi yaqqol ko'rinib turibdi: o'n varog'li matndan ko'ra, o'nta kalit so'zdan iborat suratni eslab qolish juda ham osondir; idrok-xaritasi bilan qurollangan taqdimot notig'ini savol yoki boshqa yo'l bilan fikridan chalg'itish juda ham mushkul; idrok-xaritasini ko'rgazmali qurol (slaydlar, plakatlar) sifatida namoyish etish mumkin, shu tariqa tinglovchilar asosiy g'oyani yaxshiroq eslab qolishadi va har yoqqa qarab chalg'ishmaydi; tadqiqot yakunida idrok-xaritalarining chop etilgan nusxalaridan tarqatma material sifatida foydalanish mumkin.

Ma'ruzalarni konspektlashtirishda, kurs ishlarini (referatlar, diplom ishlar, dissertatsiyalar) yozishda, katta hajmdagi ma'lumotlarni tushunish va eslab qolish jarayonida idrok-xaritalaridan foydalanish juda ham zarur. Kerakli ma'lumotlarni yozib olish, keyinchalik topish va o'qishga juda ham ko'p vaqt ketadi. Idrok-xaritalarini tuzish esa, yaxshi o'zlashtirish va matnni eslab qolish bilan birgalikda, ijodiy va kreativ tafakkur qilish qobiliyatini vujudga keltirib, aqlni tarbiyalovchi o'ziga xos mashq hisoblanadi. O'zbek tili ta'limi mazmunini talabalarning nutqiy savodxonligini grammatikani o'qitish orqali emas, balki turmush va mehnat faoliyatidagi nutq mavzulari doirasini yanada kengaytirgan hamda ixtisoslikka moslashtirgan tarzda o'zbekcha nutqni tinglash, so'zlash, o'qish va yozish amallarini uyg'unlashtirib o'rgatish bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR

1. Aripov M. Axborot texnologiyalari. - T.: Noshir, 2009.
2. Begimqulov U. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. -T.: Fan, 2007.
3. Elektron ta'lim resurslari va axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib darsni loyihalash. Elektron kutubxona. <http://lib.tuit.uz/index>
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. -B. 228.
5. Umumta'lim fanlari bo'yicha multimedia ilovalarini ishlab chiqish metodologiyasi <http://www.ziyonet.uz/> - 261-b.
6. Sultonsaidova S., Sharipova O'. O'zbek tili stilistikasi. -T.: Yurist-Media markazi, 2009.